



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI KAMBAG'ALLIKNI
QISQARTIRISH VA BANDLIK VAZIRLIGI
XODIMLARINING MALAKASINI OSHIRISH MARKAZI**

ISSN. 3060-4982

№ 2 (5) 2025



INSON KAPITALI VA MEHNATNI MUHOFAZA QILISH

**ILMIY-AMALIY ELEKTRON
JURNAL**



TOSHKENT - 2025

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRISH VA BANDLIK VAZIRLIGI

KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRISH VA BANDLIK VAZIRLIGI
XODIMLARINING MALAKASINI OSHIRISH MARKAZI

ISSN. 3060–4982
№ 2 (5), 2025

"INSON KAPITALI VA MEHNATNI MUHOFAZA QILISH"
ILMIY–AMALIY ELEKTRON
JURNAL

"ЧЕЛОВЕЧЕСКИЙ КАПИТАЛ И ОХРАНА ТРУДА"
НАУЧНО–ПРАКТИЧЕСКИЙ ЭЛЕКТРОННЫЙ
ЖУРНАЛ

"HUMAN CAPITAL AND OCCUPATIONAL SAFETY"
SCIENTIFIC AND PRACTICAL ELECTRONIC
JOURNAL

TOSHKENT – 2025

*Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi xodimlarining malakasini oshirish markazi
"Inson kapitali va mehnatni muhofaza qilish" ilmiy–amaliy elektron jurnal*

Bosh muharrir:
Raxmonov Abdusalil Xomidovich
Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi xodimlarining malakasini oshirish markazi direktori

Bosh muharrir o'rinbosari:
Nurmamatova Rahima Rahmanovna
Texnika fanlari doktori (DSc), professor – Mehnatni muhofaza qilish kafedrasi mudiri

Mas'ul kotiblar:
Qadirov Ulug'bek Baxtiyorovich,
T.f.f.d., (PhD),
To'xtaboyev Xayrullo Nosirovich
S.f.f.d., (PhD)

Texnik muharrir:
Amirqulov Zuhridin Nuriddin o'g'li
Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi xodimlarining malakasini oshirish markazi dekani

TAHRIRIYAT HAY'ATI RAISI:

Abdurahmonov Qalandar Xodjaevich – O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi akademigi, iqtisod fanlari doktori, professor. Toshkentdagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti filiali direktori.

TAHRIRIYAT HAY'ATI A'ZOLARI:

<p>I.U.Madjidov – texnika fanlari doktori, professor; B.T.Ibragimov – texnika fanlari doktori (DSc), professor; B.H.Umurzaqov – iqtisodiyot fanlari doktori, professor; A.A.Baxodirov – texnika fanlari doktori, professor; O.M.Yo'ldosheva – texnika fanlari doktori, professor; B.B.Xasanov – texnika fanlari doktori, professor; Sh.E.Kurbanbayev – texnika fanlari doktori, professor; Q.M.Murtazayev – texnika fanlari doktori (DSc); R.I.Ismoilov – texnika fanlari doktori (DSc); B.N.Toshev – yuridik fanlari doktori, professor; S.O'.Turdiyev – texnika fanlari falsafa doktori (PhD); F.N.Nurqulov – texnika fanlari doktori, professor; O.R.Yuldashev – texnika fanlari nomzodi, dotsent; O.D.Raximov – texnika fanlari nomzodi, professor; A.X.Abdullayev – texnika fanlari falsafa doktori (PhD); O.A.Djurayev – texnika fanlari falsafa doktori (PhD); G.I.Ishmuradova – pedagogika fanlari nomzodi, dotsent; Sh.B.Imomov – texnika fanlari falsafa doktori (PhD); X.G.Azimov – texnika fanlari falsafa doktori (PhD); Z.M.Sattorov – texnika fanlari nomzodi, professor; M.M.Xolmuxamedov – pedagogika fanlari doktori, professor; K.M.Mirzaaxmedov – Sotsiologiya fanlari doktori, (DSc), dotsent; G.B.Abdiyeva – texnika fanlari falsafa doktori (PhD), dotsent; R.X.Xodiyev – pedagogika fanlari falsafa doktori, (PhD), dotsent; R.A.Absalomov – texnika fanlari falsafa doktori (PhD), dotsent; M.A.Rahimov – yuridik fanlar falsafa doktori (PhD);</p>	<p>B.S.Abdullaeva – pedagogika fanlari doktori, professor; Sh.A.Abdullaeva – pedagogika fanlari doktori, professor; Sh.A.Atadjanova – pedagogika fanlari doktori, dotsent; A.A.Xalikov – pedagogika fanlari doktori, professor; N.A.Muslimov – pedagogika fanlari doktori, professor; S.S.Bulotov – pedagogika fanlari doktori, professor; R.G.Isyanov – pedagogika fanlari nomzodi, dotsent; A.B.Xayitov – iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor; O.A.Norboev – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent; A.S.Atamatov – pedagogika fanlari doktori, dotsent; L.F. Amirov – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent; F.U. Mamarasulov – iqtisodiyot fanlari nomzodi; Y.B. Nazarov – yuridik fanlari doktori, dotsent; M.I. Maxsodov – yuridik fanlari doktori, dotsent; Z.U.Berdinazarov – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent; N.T.Shayusupova – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent; A.E.Jumagulov – yuridik fanlari falsafa doktori (PhD) M.E.Mamarajabov – pedagogika fanlari doktori, professor; S.B.G'oyipnazarov – iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent; M.A.Ashurov – pedagogika fanlari falsafa doktori (PhD), dotsent; M.R. Doschanov – texnika fanlari falsafa doktori (PhD); A.A.Abdazimov – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent; J.G'. Rashidov – texnika fanlari falsafa doktori (PhD), dotsent; O'.B. Shakarov – siyosiy fanlari falsafa doktori (PhD), dotsent; H.U.Do'stmuhammad – Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.</p>
--	--

Jurnal ommaviy axborot vositasi sifatida O'zbekiston matbuot va axborot agentligida ro'yxatga olingan. Davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi bo'yicha 104355– raqamli guvohnoma berilgan.

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan innovatsiyalar vazirligi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2024–yil 30–noyabrdagi 364/5–sonli qarori bilan texnika fanlari bo'yicha, OAK Rayosatining 2025–yil 4–yanvardagi 366/5–sonli qaroriga asosan, iqtisodiyot, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha dissertatsiyalarning asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan. Jurnalda maqolalar o'zbek, rus va ingliz tillarida yiliga to'rt marotaba chop etiladi.

© Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi xodimlarining malakasini oshirish markazi, 2025. © "Inson kapitali va mehnatni muhofaza qilish" ilmiy–amaliy elektron jurnal, 2025

Xulosa. Ushbu algoritm universal mobil aloqa majmuasida ma'lumotlarni qisqa mashrutlar bo'yicha yo'naltirish imkonini beradi. Universal mobil aloqa majmualari favqulodda vaziyatlarda operativ shtablar va harbiy-taktik birliklar uchun ishonchli, tezkor va uzluksiz aloqa tizimini ta'minlashga mo'ljallangan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, ushbu kompleks eng qisqa marshrutlar bo'yicha ma'lumot uzatish algoritmlari, zaxira marshrutlash tizimi va moslashuvchan tarmoq integratsiyasi kabi innovatsion yechimlarni o'z ichiga oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Bekmurodov, S.. Favqulodda vaziyatlarda boshqaruv tizimlari. O'zbekiston Milliy Universiteti Noshirlik Uyushmasi. -Toshkent. 2019.
2. Khasanov, M. & Akhmedov, R. Favqulodda vaziyatlarda muvofiqlashtirish mexanizmlari. Fan va Texnologiya Nashriyoti. -Toshkent. 2020.
3. Smith, J. (2018). Crisis Management and Emergency Response Systems: Theory and Practice. New York: Springer.
4. Turg'unov, A., & Kholmatov, O. Tezkor-taktik bo'linmalarining favqulodda vaziyatlardagi o'zaro ta'sirini baholash. *Milliy Mudofaa Ilmiy Jurnali* 15(2). -Toshkent. 2021.75-84 bet.
5. Allen, R. & Brown, T. Systems of Coordination in Emergency Situations: Models and Applications. London: Academic Press. 2017.
6. Johnson, L. & Collins, S. *Evaluation Methods for Emergency Management*. Chicago: McGraw-Hill. 2022.
7. Mo'minov, S. Favqulodda vaziyatlarni bartaraf etishda ekspert baholash usullari. *Ilmiy Texnika Jurnali* 18(4). -Toshkent. 2020.120-128 bet.

UO'K 331.45

SANOAT KORXONALARIDA XAVFLI ISHLAB CHIQRARISH OB'EKTLARI TURLARI VA TASNIFLANISHI

Muradov Sirojiddin Husan o'g'li (Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti)

Annotatsiya. Ushbu maqolada zamonaviy sanoat korxonalarida xavfli ishlab chiqarish ob'ektlarining tasnifi va ularning xavfsizlik tizimidagi o'rni tahlil qilinadi. Xavfli ishlab chiqarish ob'ektlari turli mezonlarga ko'ra tasniflanib, ularning yonuvchan, portlovchi, zaharli, radiatsion va yuqori bosimli moddalar bilan ishlash xususiyatlari o'rganiladi. Shuningdek, maqolada xalqaro tajribaga asoslangan xavfsizlik boshqaruv usullari hamda O'zbekiston sharoitida mavjud xavfli ob'ektlarni nazorat qilish va monitoring qilish usullari ko'rib chiqiladi. Tadqiqot davomida xavfli ishlab chiqarish ob'ektlarining tasnifi va xavfsizlik mexanizmlari muhokama qilinib, sanoat korxonalarida xavfsizlikni oshirish bo'yicha tavsiyalar beriladi. Maqola sanoat xavfsizligi sohasidagi ilmiy izlanishlar uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: xavfli ishlab chiqarish ob'ektlari, sanoat xavfsizligi, xavfsizlik tizimi, yonuvchan moddalar, portlovchi moddalar, zaharli moddalar, radiatsion xavf, yuqori bosimli moddalar, monitoring va nazorat, xalqaro tajriba, xavfsizlik boshqaruvi, sanoat korxonalar.

Аннотация: В данной статье анализируется классификация опасных производственных объектов на современных промышленных предприятиях и их роль в системе безопасности. Опасные производственные объекты классифицируются по различным критериям, включая их способность работать с горючими, взрывоопасными, токсичными, радиационными и высоконапорными веществами. Кроме того, в статье рассматриваются методы управления безопасностью, основанные на международном опыте, а также способы контроля и мониторинга опасных объектов в условиях Узбекистана. В ходе исследования обсуждается классификация опасных производственных объектов и механизмы обеспечения безопасности, а также предлагаются рекомендации по повышению уровня безопасности на промышленных предприятиях. Статья имеет важное значение для научных исследований в области промышленной безопасности.

Ключевые слова: опасные производственные объекты, промышленная безопасность, система безопасности, горючие вещества, взрывоопасные вещества, токсичные вещества, радиационная опасность, высокое давление веществ, мониторинг и контроль, международный опыт, управление безопасностью, промышленные предприятия.

Abstract: This article analyzes the classification of hazardous industrial facilities in modern industrial enterprises and their role in the safety system. Hazardous production facilities are classified according to various criteria, including their ability to handle flammable, explosive, toxic, radioactive, and high-pressure substances. Additionally, the article examines safety management methods based on international experience, as well as approaches for controlling and monitoring hazardous facilities in the context of Uzbekistan. The study discusses the classification of hazardous industrial facilities and safety mechanisms, providing recommendations for improving safety in industrial enterprises. This article is of great importance for scientific research in the field of industrial safety.

Keywords: hazardous production facilities, industrial safety, Safety system, flammable substances, explosive substances, toxic substances, radiation hazard, high-pressure substances, monitoring and control, international experience, safety management, Industrial enterprises.

Kirish. Zamonaviy sanoat ishlab chiqarish tizimlarining murakkablashuvi va texnologik jarayonlarning kengayishi xavfli ishlab chiqarish ob'ektlarining soni va ta'sir doirasini oshirishga sabab bo'lmoqda. Ushbu ob'ektlarning xavfsizligi nafaqat ularning bevosita ishtirokchilari – ishchilar va muhandislar uchun, balki butun jamiyat va atrof-muhit uchun ham katta ahamiyatga ega. Sanoat korxonalaridagi xavfli ishlab chiqarish ob'ektlari tasniflanishi ularning tabiati, texnologik jarayonlarning murakkabligi, foydalaniladigan xomashyo va mahsulot turlariga qarab amalga oshiriladi. Ushbu tasniflash sanoat xavfsizligi tizimini shakllantirish va xavf omillarini boshqarish uchun zaruriy ahamiyat kasb etadi.

Xavfli ishlab chiqarish ob'ektlari turli mezonlar asosida tasniflanadi. Avvalo, bu ob'ektlar ishlatiladigan xomashyo va texnologik jarayonlarga bog'liq ravishda yonuvchan, portlovchi, zaharli, radiatsion va yuqori bosimli moddalar bilan ishlaydigan sanoat tarmoqlariga bo'linadi. Bundan tashqari, xavfli ob'ektlarni

ularning faoliyat sohasi bo'yicha ham tasniflash mumkin: neft-gaz sanoati, kimyo va farmatsevtika sanoati, metallurgiya, energetika, transport va logistika sohalaridagi obyektlar xavfsizlik darajasi bo'yicha farqlanadi. Xavf darajasi jihatidan esa obyektlar oliy, o'rta va past xavfli guruhlarga ajratiladi.

Hozirgi kunda sanoat korxonalarida yuz berayotgan avariylar va texnogen halokatlarning aksariyati xavfli ishlab chiqarish obyektlaridagi texnik va insoniy xatolarga bog'liq bo'lib, ular jiddiy iqtisodiy va ekologik oqibatlariga olib kelmoqda. Ayniqsa, neft-gaz, kimyo va metallurgiya sanoatlarida sodir bo'ladigan portlash va zaharli moddalarning chiqib ketishi atrof-muhitga va inson salomatligiga jiddiy zarar yetkazishi mumkin. Shu sababli, xavfli ishlab chiqarish obyektlarini to'g'ri tasniflash, ularning monitoringini olib borish va xavfsizlik chora-tadbirlarini kuchaytirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, rivojlangan mamlakatlarda xavfli ishlab chiqarish obyektlarini boshqarish va ularning xavfsizligini ta'minlash bo'yicha qat'iy qonunchilik bazasi mavjud. Xususan, AQSh, Yevropa Ittifoqi va Yaponiya kabi davlatlarda xavfli obyektlarning ishlash qoidalari va xavfsizlik talablariga oid aniq me'yoriy hujjatlar ishlab chiqilgan. O'zbekiston Respublikasida ham xavfli ishlab chiqarish obyektlari faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar mavjud bo'lib, ular sanoat xavfsizligini oshirish va ishlab chiqarish jarayonlarida avariylarni oldini olishga qaratilgan.

Shu nuqtai nazardan, ushbu ilmiy maqolada sanoat korxonalarida xavfli ishlab chiqarish ob'ektlarining turlari va tasniflanish tamoyillari chuqur o'rganiladi. Maqolada, shuningdek, sanoat xavfsizligini oshirish yo'nalishlari, xalqaro tajriba hamda O'zbekiston sharoitida mavjud xavfli ishlab chiqarish obyektlarini boshqarish va monitoring qilish usullari tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari xavfli ishlab chiqarish obyektlarining xavfsizligini ta'minlash bo'yicha taklif va tavsiyalarni ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Tadqiqot metodlari. Tadqiqot jarayonida ilmiy va o'quv-uslubiy adabiyotlar tahlili, pedagogik kuzatuv, qiyosiy tahlil, umumlashtirish, dasturlashtirish va raqamlashtirish modellari kabi metodlardan foydalanildi.

Adabiyotlar tahlili. Sanoat korxonalaridagi xavfli ishlab chiqarish ob'ektlarini o'rganish bo'yicha xalqaro va mahalliy darajada ko'plab ilmiy tadqiqotlar olib borilgan.

Ilmiy manbalarga ko'ra, xavfli ishlab chiqarish ob'ektlari tasniflash tizimi bir necha mezonlarga asoslangan bo'lib, bu tasnif obyektlarning xavf darajasi va xavfsizlik choralari aniqlashda muhim o'rin tutadi. Masalan, E. F. Sayfullayev (2018) tomonidan olib borilgan tadqiqotda sanoat korxonalaridagi xavf omillari kimyoviy, fizikaviy va mexanik xavflarga bo'linishi mumkinligi ta'kidlangan. Unga ko'ra, xavfli obyektlar portlovchi, yonuvchan, zaharli va yuqori harorat ostida ishlovchi moddalardan foydalanishiga qarab baholanadi [1]

Shuningdek, M. V. Petrov (2020) o'z tadqiqotida xalqaro xavfsizlik standartlarini o'rganib, xavfli ishlab chiqarish obyektlarini tasniflashda ISO 45001 va OSHA talablariga asoslanish muhimligini qayd etgan. Uning fikricha, xavf darajasi yuqori bo'lgan obyektlarda zamonaviy monitoring tizimlari va sun'iy intellekt asosidagi xavfsizlik nazorati joriy etilishi zarur [2].

1-jadval.

Xavfli ishlab chiqarish ob'ektlarini identifikatsiyalash modeli

T/r	Xavfli ishlab chiqarish ob'ekti turi	Xavflilik mezonlari	Identifikatsiya mezonlari
1	Portlash va yong'in xavfi bo'lgan muhitda ishlovchi ob'ektlar	Yonuvchi moddalar, portlovchi gazlar, yuqori bosimli tizimlar mavjudligi	I, II, III xavflilik darajasidagi zararli moddalar, o'z-o'zidan portlash ehtimoli bo'lgan kimyoviy moddalar
2	Yuqori bosimli yoki yuqori haroratli uskunalar ishlatiladigan ob'ektlar	0,07 MPa dan ortiq bosimli yoki suyuqlikning qaynash haroratidan yuqori haroratda ishlovchi uskunalar	Bosimli idishlar, bug' qozonlari, gaz ta'minoti tizimlari mavjudligi
3	Ko'chmas yuk ko'tarish va transport mexanizmlaridan foydalaniladigan ob'ektlar	Yuk ko'tarish mexanizmlari, eskalatorlar, osma yo'llar, funikulyorlar mavjudligi	Inshootga biriktirilgan yuk ko'tarish tizimlari, mexanik harakatlanuvchi platformalar
4	Metall eritish va qotishmalar tayyorlash ob'ektlari	Yuqori haroratda eritilgan qora va rangli metallar	Metallurgiya zavodlari, eritish sexlari, qotishmalar ishlab chiqarish maydonchalari
5	Konchilik va foydali qazilmalarni qazib olish ishlari olib boriladigan ob'ektlar	Yer osti qazish ishlari, tog' jinslari bilan ishlash, portlovchi moddalar qo'llash	Konchilik sexlari, shaxtalar, ochiq konlar, boyitish fabrikalari
6	Xavfli chiqindilarni saqlash va yo'q qilish ob'ektlari	Sanoat chiqindilari, kimyoviy va biologik xavfli moddalar mavjudligi	Utilizatsiya zavodlari, maxsus chiqindi poligonlari, kimyoviy chiqindilarni qayta ishlash sexlari

Xavfli ishlab chiqarish ob'ektlarida yuzaga keladigan asosiy muammolar. Ilmiy tadqiqotlar xavfli ishlab chiqarish obyektlarida avariya va baxtsiz hodisalar turli sabablar bilan bog'liq ekanligini ko'rsatadi. Shmidt A. V. (2017) tomonidan olib borilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, ishlab chiqarish jarayonlarida texnik xatoliklar va inson omili xavfli hodisalarning 75% ini tashkil qiladi [3]. Xususan, eski texnologiyalardan foydalanish va xavfsizlik me'yorlariga rioya qilmaslik sanoat korxonalaridagi avariya va baxtsiz hodisalarning ortishiga sabab bo'layotgani aniqlangan.

O. A. Xolmurodov (2021) tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlarda O'zbekiston sanoat korxonalarida xavfsizlik choralari yetarlicha joriy qilinmaganligi ta'kidlangan. Muallifning fikricha, ayniqsa, kimyo va neft-gaz sanoati korxonalarida xavfsizlik nazoratining avtomatlashtirilgan tizimlari yo'qligi muammolarni yanada kuchaytirmoqda [4].

O'zbekiston sanoat korxonalarida xavfli ishlab chiqarish obyektlarining xavfsizligini oshirish bo'yicha bir qator normativ hujjatlar mavjud. Mehnat muhofazasi va sanoat xavfsizligi davlat inspeksiyasi (2023) tomonidan taqdim etilgan hisobotga ko'ra, so'nggi yillarda sanoat korxonalarida xavfsizlik standartlari bo'yicha islohotlar olib borilgan bo'lsa-da, hali ham xavfli ishlab chiqarish obyektlarida baxtsiz hodisalar soni yuqori darajada qolmoqda [7].

R. Abduqodirov (2023) tomonidan o'tkazilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, O'zbekistonda kimyo, neft-gaz va energetika sohalarida xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha xalqaro tajribalardan foydalanish darajasi pastligi aniqlangan. Unga ko'ra, xavfsizlik choralarini takomillashtirish uchun zamonaviy xavfsizlik tizimlarini joriy etish va malakali mutaxassislarini tayyorlash zarur [8].

Tadqiqot natijalari va muhokamalar. Tadqiqot davomida sanoat korxonalarida xavfli ishlab chiqarish ob'ektlari turlari, ularning tasnifi va xavfsizlikni ta'minlash mexanizmlari o'rganildi. Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, ishlab chiqarish jarayonlarida xavf omillarining ta'siri muayyan mezonlarga asoslangan holda baholanadi va bu mezonlar xalqaro tajribaga mos kelishi lozim. Sanoat korxonalarida xavfli ishlab chiqarish ob'ektlari yuqori xavf darajasiga ega bo'lib, ularda ro'y beradigan avariya nafaqat korxonada xodimlariga, balki atrof-muhitga ham katta zarar yetkazishi mumkin.

Obyektni xavfli ishlab chiqarish ob'ektlari kategoriyasiga kiritishda xavfsizlikning tegishli qoidalariga muvofiq ham O'zbekiston Respublikasi Sanoat xavfsizligi davlat qo'mitasida ro'yxatdan o'tkaziladigan, ham ro'yxatdan o'tkazilmaydigan texnika qurilmalari va inshootlar hisobga olinadi (1-jadval).

Xavfli ishlab chiqarish ob'ektlari jumlasiga quyidagi xavfli moddalar mansv hisoblanadi:

1) portlash-yong'in xavfi bo'lgan muhitni yuzaga keltirishi mumkin bo'lgan moddalar: tasdiqlangan standartlarga muvofiq tirik organizmga ta'sir qilish darajasiga ko'ra I, II va III xavflilik darajalariga (o'ta xavfli, yuqori darajada xavfli va o'rtacha darajada xavfli) mansub zararli moddalar; muayyan turdagi tashqi ta'sir chog'ida issiqlik ajratgan va gazlar hosil qilgan holda o'z-o'zidan juda tez tarqaladigan kimyoviy o'zgaruvchan portlovchi moddalar; inson sog'lig'i va atrof muhit uchun xavfli konsentratsiyali moddalar mavjud bo'lgan ishlab chiqarish chiqindilari foydalaniladigan, ishlab chiqariladigan, qayta ishlanadigan, hosil qilinadigan, saqlanadigan, tashiladigan, yo'q qilinadigan;

2) 0,07 megapaskaldan ortiq bosim ostida yoki ishlatiladigan suyuqlikning normal atmosfera bosimidagi qaynash haroratidan ortiq haroratda ishlaydigan uskunalardan foydalaniladigan;

3) ko'chmas asosga o'rnatilgan yuk ko'tarish mexanizmlari, eskalatorlar, osma yo'llar, funikulyorlardan (tog' temir yo'llaridan) foydalaniladigan;

4) qora va rangli metallar eritmaları hamda ushbu eritmalar asosida qotishmalar olinadigan;

5) konchilik ishlari, foydali qazilmalarni qazib olish va boyitish ishlari, shuningdek yer osti sharoitida ish olib boriladigan korxonalar yoki ularning sexlari, uchastkalari, maydonchalari, shuningdek boshqa ishlab chiqarish ob'ektlari kiradi.

2-jadval.

Xavflilik darajasini baholash

Xavflilik darajasi	XI qiymati	Tavsif
O'ta xavfli obyekt	80+	Maxsus ruxsat bilan ishlashi kerak
Yuqori xavfli obyekt	50 - 79	Doimiy monitoring talab qilinadi
O'rtacha xavfli obyekt	30 - 49	Yillik tekshiruv o'tkazilishi lozim
Xavfsiz obyekt	0 - 29	Oddiy xavfsizlik qoidalariga rioya qilinishi kerak

3-jadval.

Xavfsizlik choralari belgilash

Xavflilik darajasi	Tavsiya etiladigan xavfsizlik choralari
O'ta xavfli obyektlar (80+)	Real vaqt monitoring, avtomatlashtirilgan xavfsizlik tizimi, doimiy nazorat
Yuqori xavfli obyektlar (50-79)	Kvartal tekshiruvlari, xavfsizlik treninglari, dron monitoring
O'rtacha xavfli obyektlar (30-49)	Yillik audit, xavfsizlik sertifikatlari
Xavfsiz obyektlar (0-29)	Oddiy xavfsizlik normalariga rioya qilish

Xavfli ishlab chiqarish obyektlari tipi xavfli ishlab chiqarish obyektlarini identifikatsiyalashda aniqlanadi. Birinchi va ikkinchi tipdagi xavfli ishlab chiqarish obyektlarini identifikatsiyalash quyidagi qoidalar hisobga olingan holda amalga oshiradi:

Xavfli ishlab chiqarish obyektlarini identifikatsiyalash tartibi to'g'risidagi nizomga asosan xavfli ishlab chiqarish obyektlari o'rtasidagi masofa 500 metrdan kamni tashkil etsa, xavfli moddaning jami miqdori hisobga olinadi.

4-jadval.

Xavfli moddalar sonining cheklangan me'yorlari

Xavfli moddaning nomi	Cheklangan me'yor, tonna
Ammiak	500
Ammoniy nitrat (tarkibidagi ammoniy nitratdan hosil bo'lgan azot massaning 28 foizidan ortig'ini tashkil etadigan ammoniy nitrat va ammoniy aralashmasi, shuningdek ammoniy nitrat konsentratsiyasi massaning 90 foizidan ortiq bo'lgan ammoniy nitratning suvli eritmalari)	2500
O'g'it shaklidagi ammoniy nitrat (ammoniy nitrat asosidagi oddiy o'g'itlar, shuningdek tarkibidagi ammoniy nitratdan hosil bo'lgan azot massaning 28 foizidan ortig'ini tashkil etadigan murakkab o'g'itlar (murakkab o'g'itlar tarkibida ammoniy nitrat fosfat va (yoki) kaliy bilan birgalikda mavjud bo'ladi)	10 000
Akrilonitril	200
Xlor	25
Etilen oksidi	50
Sianli vodorod	20
Ftorli vodorod	50
Oltingugurtli vodorod	50
Oltingugurt dioksidi	250
Oltingugurt trioksidi	75
Qo'rg'oshin alkili	50
Fosgen	0,75
Metilizotsianat	0,15

5-jadval.

Xavfli moddalar turlari	Cheklangan me'yor, tonna
Alanganadigan gazlar	200
Tovar-xom ashyo omborlari va bazalardagi yonadigan suyuqliklar	50 000
Texnologik jarayonda foydalaniladigan yoki magistral quvurlar bilan uzatiladigan yonadigan suyuqliklar	200
Zaharli moddalar	200
Yuqori zaharli moddalar	20
Oksidlanadigan moddalar	200
Portlovchi moddalar	50
Atrof tabiiy muhit uchun xavf tug'diradigan moddalar	200

Xavfli ishlab chiqarish obyektlarini o'rganish orqali xavfsizlik texnikasi va mehnat muhofazasi sohasida quyidagi muhim natijalarga erishish mumkin:

Birinchi, ishlab chiqarish jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xavfli omillar aniqlanadi va baholanadi. Bu jarayonda texnologik uskunalarning ishonchiligi, xavfli moddalar bilan ishlash tartibi, yong'in xavfsizligi va boshqa muhim jihatlar tahlil qilinadi. Bu esa baxtsiz hodisalarning oldini olish va mehnat sharoitlarini yaxshilashga xizmat qiladi. Ikkinchi, xavfli ishlab chiqarish obyektlarini chuqur o'rganish orqali ishlab chiqarish jarayonlarini modernizatsiya qilish va zamonaviy xavfsizlik tizimlarini joriy etish mumkin bo'ladi. Masalan, aqlli sensor tizimlari, avtomatlashtirilgan nazorat tizimlari va sun'iy intellekt texnologiyalari ishlab chiqarish xavfsizligini sezilarli darajada oshiradi. Uchinchi, bu jarayon xodimlarning xavfsizligini oshirish va kasbiy kasalliklar oldini olish imkonini beradi. Ish sharoitlarini yaxshilash orqali xodimlarning mehnat unumdorligi oshadi, ularning sog'lig'iga zarar yetish ehtimoli kamayadi. Shu bilan birga, xavfsizlik qoidalarini buzish yoki inson omili tufayli yuzaga keladigan xatoliklar kamayadi. To'rtinchi, xavfli ishlab chiqarish obyektlarini chuqur o'rganish huquqiy-me'yoriy bazani takomillashtirish va ishlab chiqarish standartlarini rivojlantirishga yordam beradi. Mehnat muhofazasi va xavfsizlik qoidalariga qat'iy rioya qilish nafaqat inson hayotini himoya qiladi, balki iqtisodiy zararlarni kamaytiradi.

Beshinchi, bu jarayon ekologik xavfsizlikni ta'minlashga ham xizmat qiladi. Ishlab chiqarish jarayonida xavfli chiqindilar, zararli gazlar yoki kimyoviy moddalar tabiatga tarqalishi mumkin. Shuning uchun xavfli obyektlarni to'g'ri o'rganish orqali ekologik ta'sirni kamaytirish, chiqindilarni qayta ishlash va toza texnologiyalarni joriy etish mumkin. Xulosa qilib aytganda, xavfli ishlab chiqarish obyektlarini ilmiy o'rganish orqali texnik xavfsizlik darajasi oshiriladi, mehnat muhofazasi ta'minlanadi va ishlab chiqarish samaradorligi yaxshilanadi. Shu sababli, bu sohada chuqur tahlillar olib borish va innovatsion yondashuvlarni tatbiq etish muhim ahamiyatga ega.

Xavflilik darajasini baholash va tahlil qilish. Obyektni identifikatsiya qilgandan so‘ng, uning xavflilik darajasi baholanadi. Buning uchun “Xavflilik indeksi” hisoblanadi.(1-formula)

$$XI = (C_H \times W_1) + (C_P \times W_2) + (C_M \times W_3) + (C_E \times W_4)$$

Bunda: **XI** – Xavflilik Indeksi (Xavf darajasini baholash uchun ko‘rsatkich). **C_H**– Kimyoviy xavf (Chemical Hazard), zararli va portlovchi moddalarning mavjudligi. **C_P**– Bosim xavfi (Pressure Hazard), yuqori bosimli muhit mavjudligi. **C_M**– Mexanik xavf (Mechanical Hazard), yuk ko‘tarish mexanizmlari va boshqa harakatlanuvchi uskunalar xavfi. **C_E**– Ekologik xavf (Environmental Hazard), ishlab chiqarishning atrof-muhitga ta’siri. **W₁,W₂,W₃,W₄**– Og‘irlik koeffitsiyentlari (Weights), har bir xavf turining umumiy xavflilik indeksiga ta’sirini hisobga oladi

Og‘irlik koeffitsiyentlari (WWW):

Kimyoviy xavf – 0.4

Bosim va harorat – 0.3

Mexanik xavf – 0.2

Ekologik xavf – 0.1

Bu formula xavfli ishlab chiqarish obyektlarini identifikatsiyalash va baholash uchun qo‘llanilishi mumkin. Har bir xavf turining muhimligini hisobga olib, umumiy xavflilik indeksi ni aniqlashga yordam beradi.

Xulosa. Zamonaviy sanoat ishlab chiqarish tizimlarining murakkablashuvi va texnologik jarayonlarning kengayishi xavfli ishlab chiqarish ob’ektlarining soni va ta’sir doirasining ortishiga sabab bo‘lmoqda. Ushbu ob’ektlarning xavfsizligi nafaqat ularning bevosita ishtirokchilari – ishchilar va muhandislar uchun, balki butun jamiyat va atrof-muhit uchun ham katta ahamiyatga ega. Xavfli ishlab chiqarish ob’ektlarini to‘g‘ri tasniflash va ularning xavfsizlik darajasini nazorat qilish sanoat xavfsizligi tizimini shakllantirishda muhim omillardan biri hisoblanadi.

Tadqiqot davomida xavfli ishlab chiqarish ob’ektlarining tasniflanishi va xavfsizlikni ta’minlash mexanizmlari chuqur o‘rganildi. Xavfli ishlab chiqarish ob’ektlari turli mezonlar asosida tasniflanadi, jumladan, foydalaniladigan xomashyo va texnologik jarayonlarga ko‘ra yonuvchan, portlovchi, zaharli, radiatsion va yuqori bosimli moddalar bilan ishlaydigan sanoat tarmoqlariga ajratiladi. Bundan tashqari, xavf darajasi jihatidan obyektlar oliy, o‘rta va past xavfli guruhlarga bo‘linadi.

Ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, xavfli ishlab chiqarish ob’ektlarida sodir bo‘ladigan avariya va texnogen halokatlarning aksariyati texnik va insoniy xatolarga bog‘liq bo‘lib, bu jiddiy iqtisodiy va ekologik oqibatlariga olib kelmoqda. Ayniqsa, neft-gaz, kimyo va metallurgiya sanoatlarida yuz berayotgan portlashlar va zaharli moddalarning chiqib ketishi atrof-muhit va inson salomatligiga jiddiy zarar yetkazishi mumkin. Shu sababli, xavfli ishlab chiqarish ob’ektlarini to‘g‘ri tasniflash, ularning monitoringini olib borish va xavfsizlik chora-tadbirlarini kuchaytirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

